

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

2-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 2 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUIJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Xurramova Saodat Xabibovna</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIIY IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285



## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Hazratali Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025  
**Accepted:** 1 February 2025  
**Published:** 10 February 2025

*Article / Original Paper*

## **THE DIALECTIC CONTENT OF TRANSFORMATION IN THE INFORMATION SPACE**

**Rasulov Azizkhon Mukhamadkodiurovich**

Teacher of the Department of Philosophy and National Idea,  
Fergana State University

**Abstract.** The article examines the fact that the method of obtaining new knowledge in the information society is based on the use of computing techniques, that the methods of modern science allow collecting very large amounts of data, and that new approaches have emerged in the information space. It is also stated that instead of searching for individual facts, the database is used to establish correlations and trends, and scientific information is obtained through informational operations. So, the source of production in the new information society depends on the technologies of knowledge gathering, information processing and symbolic communication. Knowledge and information are always important in the development of society. At the same time, the development of information in society and its impact on knowledge as a source of production were studied.

**Keywords:** information space, technology, information analysis, society, F. Bekon, N. Luman, communication, public policy, reforms, electronic technology.

## **AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI**

**Rasulov Azizxon Mukhamadqodiurovich,**

Farg'ona davlat universiteti,  
falsafa va milliy g'oya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo'llashga asoslanganligi, zamonaviy fanning metodlari hajmi jihatidan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni to'plash imkonini berishi, axborot makonida yangi yondashuvlar vujudga kelganligi tadqiq etilgan. Shuningdek alohida faktlarni izlash o'rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar bazasi qo'llanishi, ilmiy ma'lumotlar informatsion operatsiyalar orqali olinishi bayon etilgan. Demak, yangi axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simvolik kommunikatsiyalarga bog'liq. Jamiyat rivojlanishida bilim va axborot doim katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jamiyatda axborotning rivojlanishi va bilimga ta'siri ishlab chiqarish manbai sifatida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot makoni, texnologiya, axborotni tahlil qilish, jamiyat, F.Bekon, N.Luman, muloqot, davlat siyosati, islohotlar, elektron texnika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N31>

**Kirish.** Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, inson o'zi yashayotgan tabiiy ijtimoiy muhitni, o'zini-o'zi o'zgartirishni bilishi uchun hamisha yangi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Boshqacha aytganda, inson o'zining tabiiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun unga yangi axborot va bilimlar zarur bo'ladi. Shuning uchun ham inson bilimlari doimo o'zgarib turuvchi, dinamik xususiyatga ega.

Axborot va bilim jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida muhim rol o'ynagan va o'ynamoqda. Jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va rolini mohiyatan anglashga aloqador

holatlarda axborot va bilimning o'zaro aloqasini tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot va bilim inson omilining barcha sohalarida namoyon bo'layotgan jihatlari bilan ham ajralib turishi muhim ilmiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bilim va axborot nima, ular o'zaro bog'liqmi, degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Jamiyat rivojlanishida bilim va axborot katta ahamiyatga ega bo'lib, mazkur jamiyatda bilimning rivojlanishi va unga ta'siri ishlab chiqilib manba sifatida tadqiq etiladi. Jamiyat o'z rivojlanishining barcha bosqichlarida bilimlar ishlab chiqqan va ulardan foydalanib kelgan. Ma'lumki, insonning rivojlanishi uchun axborot suv, havo va olov kabi kerak bo'ladi. Shu ma'noda, «axborot» – bilimga bo'ysunuvchi tushuncha bo'lib, bilimni boyitadi va o'zgartiradi. Inson ijtimoiy turmushning taraqqiyoti asosida bilim yotadi, ya'ni bilim ijtimoiy tajribani harakatlantiradi. Demak, “axborot tevarak-atrofdagi turli xil manbalardan to'plangan omillar bo'lib, bilimlarni qayta izhor qilish” hamdir [2.180.].

Taniqli faylasuf F.Bekonning “kuch bilimda” iborasini hozirgi ijtimoiy kontekstda “o'zgarishlar – bilimdadir”, deb izohlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Texnologiyalarni oziqlantiruvchi bilimlarning tobora tezlik bilan o'zlashtirilishi tub o'zgarishlarning shiddatidan darak beradi.

P.P.Gaydenko quyidagi formulani taklif qiladi: “Axborot – bu bilim ayiruv shaxsiy tajriba” [1.189.]. Jamiyatshunos N.Luman ham shunga o'xshash nuqtai nazar tarafdoridir. Uning fikricha, “axborotni bilim yaratadi, ammo uni ko'chirma bilimdan ajratish kerak” [3.43.]. Axborot – bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa hamda bo'layotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa o'rtasidagi tafovutdir. Shu sababli ham, axborot boshqa narsalardan ajralib turishi uchun na doirasi, chegarasi ichida turlanishi mumkin bo'lgan o'lchovga, na uni topib olish mumkin bo'lgan makon-manzilga ega.

Bilim o'z taraqqiyotining dastlabki bosqichida anglash holatini bosib o'tadi. Bilimning ma'no va mohiyatini anglab yetmasdan turib, uni tushunib bo'lmaydi. Xuddi shuning uchun ham anglab olingan bilim o'z taraqqiyotining ikkinchi bosqichida tushunish holatiga kiradi. Inson bilimlarning ma'no va mohiyatini tushunib yetgach, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi to'g'risida fikr bildiradi. Inson tomonidan o'zlashtirib olingan bilimlar, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga, manfaatlariga, xohish-istaklariga, qisqacha aytganda, hayotiy mo'ljallariga mos tushsa, kishida o'zlashtirib olgan bilimlarni turmushga tatbiq etish istagi hosil bo'ladi.

Hozirda biz bilim tushunchasini turlicha tushuntirishimiz mumkin. Masalan, subyekt – olgan bilimlari asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bilim – obyektiv reallikni subyekt ongida tizimli ravishda aks ettirishdir.

Epistemologik nuqtai-nazardan esa bilim obyektiv ma'noga ega bo'lib haqiqatning mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Bunda bilim to'g'ri tanlansa, ezgu maqsad va faoliyatga yo'naltirilsagina, obyektiv ma'no-mazmun kasb etadi. Shuning uchun ham bilim bilan faoliyatning o'zaro bog'liqlik munosabatlari ko'pchilik falsafiy qarashlarning diqqat markazida turadi. Bilimsiz hech qanday harakat bo'lishi mumkin emas. Biroq ongli harakatni yuzaga chiqarib, butun jamoaga manfaat keltiradigan bilimgina foydalidir.

**Natijalar va muhokama.** Insonning jamiyatda tutgan o'rni uning nechog'lik o'qimishli, bilimlili bilan bog'liq. U hech qachon insonning boyligi, nasl-nasabi bilan belgilanmasligi qayd etiladi. Bunday ijtimoiy muhitda “axloqi, taqvodorligi, faoliyati va yana boshqa ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan sifatlar “bilim olish”dek e'tiborga molik emas” [4.235.]. Aftidan, jamiyatni

axborotlashtirish ijodiy yaratuvchilik qobiliyatlarining yuksalishiga imkoniyat beradi. Kundalik faoliyatimizda “axborot” va “bilim” tushunchalarini bir-biriga yaqin, o‘xshash tushunchalar sifatida ishlatamiz. Ammo chuqurroq o‘ylab qarasa, ushbu tushunchalarning biri ikkinchisiga o‘xshash emasligiga guvoh bo‘lamiz. Har qanday axborot ham bilim bo‘lavermaydi. Bilim – axborotning oliy darajasi, eng yuqori holatidir. Axborot bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun inson bisotida mavjud bo‘lgan tarixiy tajriba, idrok, tasavvur chig‘irig‘idan o‘tmog‘i darkor. Ana o‘shandagina axborot bilimga aylanadi. Xuddi shuning uchun ham, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bilim faqat ma‘lumotlar yig‘indisi emas, balki ularning sintezidir. Bilim inson borlig‘ining eng asosiy xususiyati, miya faoliyatining mahsulidir.

Inson tug‘ilganida uning miyasida hech qanday bilim bo‘lmaydi. Bilim hayot jarayonida, ya‘ni inson amaliy faoliyatining natijasi sifatida hosil bo‘ladi. Insonning yangi axborotni bilishi va o‘rganishi uzoq davom etadigan murakkab, ziddiyatli jarayon bo‘lib, bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Bilimga ega bo‘lish juda ko‘p ma‘lumotlar bilan tanishishga bog‘liq.

Hozirgi kunda axborotning yildan-yilga ko‘payib borishi natijasida bilim olish birinchi o‘ringa chiqmoqda. Axborotlashtirish jarayonlarining, ayniqsa informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi-da axborot va bilim muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, axborot va bilim XX asrning oxiridan boshlab texnologiyalarning fundamenti hisoblanadi [5. 37.]. Shu ma‘noda, bilim insoniyat rivojlanishining asosini tashkil etadi, uni olish usullari esa turlichadir. Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olishning turli usullarini tasniflash mumkin. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblanadi va u asosida mehnatga oid natijali xatti-harakatlar va tabiiy resurslarning o‘sishi ta‘minlanadi.

Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo‘llashga asoslangandir. Zamonaviy fanning metodlari (usullari) hajmi jihatidan juda katta bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradi, yangi (kuzatuv, eksperiment, modellashtirishga asoslanmagan) yondashuvlar qo‘llaniladi. Alohida faktlarni izlash o‘rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o‘rnatish uchun ma‘lumotlar bazasi qo‘llanadi, ilmiy ma‘lumotlar informatsion operatsiyalar orqali olinadi. Demak, yangi axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to‘plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simvolik kommunikatsiyalarga bog‘liq. Jamiyat rivojlanishida bilim va axborot doim katta ahamiyatga ega. Lekin mazkur jamiyatda axborotning rivojlanishi va bilimga ta‘siri ishlab chiqarish manbai sifatida tadqiq etiladi.

Axborotning bilimdan farqli tomonlari mavjud. “Axborot”, “bilim” tushunchalari ko‘pincha bir-biriga o‘xshatiladi. Bu qisman shu bilan izohlanadiki, bir darajada axborot sifatida amal qiluvchi dalillar boshqa darajada ma‘lumot sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, radio yoki televideniye muxbiri suhbat jarayonida axborot, ya‘ni yangilik oladi. Axborot jamoatchilik fikrini o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu axborotdan, o‘z navbatida, tashkilotlar, muassasalar tahlil uchun ma‘lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

Axborot o‘z-o‘zini tashkillashtirish tizimlarining muhim tarkibiy qismidir. Xotira, faoliyat dasturi, o‘z-o‘zini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bio-ijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi. Axborot orqali bilim ifodalanadi, bir subyektdan ikkinchisiga yetkaziladi, biogenetik faoliyatni ijtimoiy boshqarish dasturlari tuziladi hamda ularning bajarilishi nazorat qilinadi.

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda axborot va bilim aynanlashtiriladi. Vaholanki, bilim axborot emas, balki tushunchalar, tasavvurlar, g‘oyalar majmuasidir. Aloqa kanalida, muloqot

jarayonida bilim axborotning mazmuniga aylanadi. Bilimning ma'nosi axborot signallarining ketma-ketligida, tartibida kodlashtiriladi. Muloqotning birinchi subyektini bilimni kodlashtirish orqali axborotga (so'z, gap, matn, aloqa to'lqini, belgilarga) aylantiradi. Bu subyekt ijtimoiy guruh, tashkilot bo'lishi mumkin. Muloqotning ikkinchi subyektini yana bir marta kodlashtirish amalini bajarib, axborotni bilimga aylantiradi.

Hozirgi dunyoda bilimning muhimligi va zarurligi, axborotlashgan jamiyatni barpo etish haqidagi konsepsiyalarda o'z aksini topgan. Bilimni egallash voqelikni subyektiv o'zlashtirish bilan bog'liq. Ushbu nuqtai nazardan, san'at, axloq, din bilish nazariyasi tomonidan o'rganiladigan predmetlar sirasiga kirmaydi. "Bilish uchun bilish" va "uddalash (eplash) uchun bilish" — bu insonning refleksiyaga bo'lgan sof qobiliyatidir. Bu Pyer de Sharden e'tibor berib o'tganidek, axborotni yig'ish, uzatish va qayta ishlash jarayonlarining vujudga kelishiga olib keldi. M.Polanining ta'kidlashicha, his-tuyg'ular orqali olinadigan axborot ong orqali o'tadigan axborotga qaraganda nisbatan boyroqdir [6.9.].

Zamonaviy dunyoda mamlakatning rivojlanishi bilimlar va axborotni innovatsiya va tatbiq etish o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan va axborotni qayta ishlaydigan bilim va moslamalarning yuzaga kelishiga nisbatan qo'llashi bilan belgilanadi. O'z navbatida bilim subyekt tomonidan, shaxsiy mulohaza asosida shakllantiriladi.

Bilim uning turli ma'naviy o'zgachaligi bilish faoliyatining xususiyatlarini ifodalaydi. Bilib olish, bilish – predmetning mohiyatiga kirib borish, uni ideal shaklda tasvirlashni hamda bu bilimni biluvchining real faoliyati sxemasiga aylantirish va alohida belgining mazmunini ochib berish qobiliyatini anglatadi. Bilim insonning qobiliyatidan ajralmasdir. Inson har doim bilimni o'z faoliyati chog'ida qo'llab boradi. Bilim tushunish jarayoni, lekin shu bilan birga tadqiq etilayotgan obyektning qiymati jihatlarini aks ettiradigan baholash hamdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "axborot" tushunchasi XX asrning yarmigacha odamlar tomonidan turli yo'llar bilan og'zaki, yozma ravishda, belgilar, texnik vositalar va shu kabilar bilan uzatiladigan ma'lumotlar deb talqin qilingan. Biroq, aloqa va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, global internet tarmog'ining vujudga kelishi va hayotning turli sohalariga kirib borishi axborotning kengroq tushunchasini ishlab chiqishni talab etdi.

Tadqiqotchi olim K.Shennon tomonidan berilgan axborotning ta'rifi ehtimolli-statistik yondashuv asosida amalga oshiriladi va "biron-bir obyekt, tizim, jarayon va hodisa haqidagi bilimlarning noaniqlik darajasining pasayishi yoki obyekt, tizim, hodisa va jarayon holatining aniqligining o'zgarishi", deb talqin qilinadi [7.35.]. Ushbu ta'rif bir necha ehtimolli pirovardlardan (oqibatlardan, natijalardan) qay biri sodir bo'lganligini (yoki sodir bo'lishini) ko'rsatadi va ana shu orqali masalaning yechimi sifatidagi bir nechta ehtimolli variantlar soni kamaytiriladi.

Bilimning eng yuqori darajalari, odatda, sarf qilingan birlikka nisbatan mahsulotning yaxshilangan va ko'tarilgan darajasini beradi. Bilim va axborot zamonaviy ishlab chiqarish texnologik funksiyalarini tavsiflaydi. Bilim – ishlab chiqarishning manbaidir. Demak, "axborot va bilimni, tasavvur etish shakli va uslubidan qat'i nazar, tizim (inson, tashkillashgan tuzilma, avtomatlashgan tizim) tomonidan qabul qilinadigan ayrim predmetli soha (shaxslar, predmetlar, faktlar, hodisalar, voqealıklar, jarayonlar) haqidagi bilim hajmi va tuzilishining o'zgarishi deb tushunamiz" [8.2.]. Umuman olganda, bilim va axborot jamiyat rivojlanishining barcha usullari uchun muhim, chunki ishlab chiqarish jarayoni har doim bilimlar va axborotni qayta ishlash darajasiga bog'liqdir. Bilimlar axborotni qayta ishlaydigan va innovatsiyalarni



tatbiq etish yoʻnalishlari oʻrtasida muloqotni amalga oshiradigan qurilmalarni ishga solish uchun qoʻllaniladi.

Axborotni tahlil qilishning yangi zamonaviy imkoniyatlari vujudga kelmoqda. Bilimning manbai boʻlgan axborot yangi texnologiyalar va shu kabilarning manbai boʻlgan bilimlarning yuzaga kelishini yaxshilash uchun qayta ishlanadi. Bilim va axborotning oʻzaro nisbatida ular oʻrtasida murakkab sinergetik-dialektik aloqa ochiladi.

Har qanday ijod muhitida bilim darajasi cheklangan boʻlsa, ijodkor ishining faolligi susayadi, u foydasiz boʻladi. Bunday foydasizlik intellektual oʻziga xoslikning aksidir. Boshqacha aytganda, bilim va axborot orasidagi farqni odam va kompyuter oʻrtasidagi farqqa qiyoslash mumkin. Etik andozaga, meʼyorga mos tushishi uchun aniq voqelikni, ahvoli belgilovchi vaziyatdan xabardor boʻlish kerak. Ushbu yoʻl bilan nafaqat maqsad toʻgʻri tanlab olinadi, balki unga yetishish uchun adekvat vositalar ham topiladi. Biroq bir ish ahvoli haqida mustaqil fikr yuritish uchun odamga yoki bir guruh odamlarga axborot berish kerak. Baʼzi hollarda axborotning koʻpligi odamni chalgʻitadi, toʻgʻri fikr-mulohaza yuritishga qoʻymaydi. Bilim shaxsiy tajriba mavjudligini koʻzda tutsa, axborot aksariyat hollarda uni eʼtiborga olmaydi. Odam hali birlamchi tajribaga ega boʻlishga ulgurmay turib, axborot unga ikkilamchi tajribani yetkazib beradi.

Bizningcha, axborot unga ehtiyoj, talab paydo boʻlganidagina bilimga aylanadi. Shuningdek, axborotlashtirilgan jamiyat tarkibiy jihatdan bilim talablari natijalaridan iboratdir. Bulardan biz bilim va axborot oʻzaro dialektik bogʻliq ekanligini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni, bilim –bilim boʻlishi uchun, avval axborotga aylanishi kerak. Bu jarayonda axborot bilimni tasodif shaklida qayta yuzaga keltiradi. U oʻz navbatida belgilagan, taʼriflagan barcha narsalarni boshqacha belgilashi, taʼriflashi mumkin boʻladi. Shu maʼnoda, biz axborotning topqirlik, talabchanlik sifati alohida ahamiyat kasb etishini koʻrishimiz mumkin. Biroq, fikrimizcha, axborotni qoʻlga kiritish, unga nomigagina egalik qilish oson-u, undan foydalanish qiyin. Buning uchun maxsus uquv va mahorat kerak boʻladi.

Agar axborotdan toʻla-toʻkis shaxsiylashtirilgan bilim sifatida foydalanilsa, bilimga ketgan xarajatlar uning natijasini sira oqlamaydi. Baʼzan arziyas axborotlar nihoyatda ulkan hajmdagi bilimlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Masalan, ilmiy ijod jarayonidagi baʼzi evristik qarashlarni aynan eʼtibordan chetda qolgan axborotlarning taʼsiri tufayli yuzaga kelgan.

“Axborot – hokimiyat demak. Axborot olish erkinlikning shartidir... Bilim va axborot strategik resurslarga va postindustrial jamiyatni oʻzgartirish vositasiga aylanadi” [8.103.]. Ammo axborotga hukmronlik qilib boʻlmaydi, u demokratik manba sifatida hamma uchun eshigi lang ochiq va unga yakka hokimlik qilish mumkin emas. Biroq axborot – ishlab chiqarishning eng nodemokratik omili hamdir, chunki eshigi ochiq boʻlgani bilan, unga ega boʻlish maʼnosini bildirmaydi. Boshqa barcha resurslardan farqli oʻlaroq axborot anʼanaviy tushunchalar qolipiga mos tushmaydi, unga nisbatan “tugadi”, “ado boʻlyapti”, “falon hajmda isteʼmol qilindi”, degan iboralarni ishlatib boʻlmaydi.

Hozirgi axborotlashtirish jarayonlarida bilim, axborot, axborot-kommunikativ texnologiyalarning ahamiyati ayniqsa oshdi. Yuqori malakali mehnat bilim va axborotga asoslangani uchun ijodkor shaxsning roli oshadi. XX asr oxirida yuksak texnologiyalarning poydevori bilim va axborot boʻlgan. Bu texnologiyalarning yaratilishi ishlab chiqarish asoslarida, inson bilan tabiat munosabatlarida keskin sifat oʻzgarishlari yasadi. Zamonamizda

yuz berayotgan kompyuterlashtirish, kompyuter texnologiyalari fikrlash bosqichlarining imkoniyatlarini kengaytiradi, esda saqlashdan ozod qilgani uchun miyaga dam berib, ijodiy parvozga yo'l ochadi.

Insonning yuqori yoki past malakali bilimga egaligi biror qarorga tez kelishida, bir vaziyatdan ikkinchisiga tez ko'nika olishida bilinadi. Shuning uchun ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy-madaniy hayotda bilim va axborotning ahamiyati tinmay oshib boraverishi yuqorida aytilgan sohalarda insonning intellektual salohiyatini namoyon etadi. Bu esa shaxsning ijodiy fikrlash, tang holatlarda tez qaror qabul qilish qobiliyatlarini hisobga olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jamiyatga ijodiy-tanqidiy yondashuvda inson omili hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydi. Olingan axborotlarni quruq to'playvermasdan, ularni ilmga aylantira oladimi, ijodiy qo'llab, qaror chiqara oladimi-yo'qmi – asosiy gap ana shunda. Bunday sharoitda uzluksiz o'qitish, malaka oshirish, ijodiy imkoniyatlarni faollashtirish konsepsiyasi faqat bir shaxsga emas, butun jamiyatga, alohida birlashmalarga qaratilmog'i lozim. Bilim va axborotni o'zida jamlab, ulardan ijodiy foydalanib, yangilik yaratadigan odamlarga talab ortib boradi.

Har xil turlardagi axborot mahsuloti inson bilimlarining manbaidir. Axborot mahsuloti deganda, bilimlarning turli jabhalari, ma'lumotlar, san'at asarlari va an'anaviy yo'l bilan yoki elektron texnika yordamida olingan boshqa axborot shakllari tushuniladi. Bularndan ko'rinadiki, intellektual mehnat vakillarining faoliyati ko'p jihatdan ular oladigan axborotning mazmuni, aniqligi va o'z vaqtidaligiga bog'liq. Ayni shu sohada axborotni bilimlar yaratilish va ulardan foydalanish joylariga yetkazishda axborot texnologiyalari katta xizmatchi kuch bo'lib, u ikkita tashkil etuvchi qismdan axborot va ko'ngil ochishdan iborat. Demak, odamlar uchun axborotni taqdim etish sur'ati mavjud bo'lib, u qanchalik shiddatli bo'lsa, tushunish, anglash shunchalik qiyinlashadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, axborot va bilimning o'zaro aloqadorligi epistemologik xususiyatga ega. Ya'ni, obyekt – axborot bo'lsa, bilish bu bilimdir.

Axborotlashtirish jarayonlari insoniyat taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tabiat bilan insoniyat jamiyati o'rtasida, shuningdek insoniyat jamiyatining o'zida o'zaro axborot almashuvi mavjud bo'lmaganida u taraqqiy qilmagan va hozirgi kamolotga erishmagan bo'lardi. Hayot mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun, moddiy vositalar kabi, axborot ham zarur. Insoniyatning taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning hayotida axborotlar shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Jamiyatning rivojlanishi hamda hayotning moddiy sharoitlarini ta'minlash, shuningdek, atrof muhit va o'zini ko'proq o'rganish bu faoliyatning yo'naltiruvchi asosi bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda, axborot orqali bilim ifodalanadi, bir subyektdan ikkinchisiga yetkaziladi, biogenetik faoliyatni ijtimoiy boshqarish dasturlari tuziladi hamda ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Hozirgi jamiyatda mamlakatning rivojlanishi bilim va axborotlarning innovatsiya va tatbiq etish o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan hamda axborotni qayta ishlaydigan bilim va moslamalarning yuzaga kelishiga nisbatan qo'llanishi bilan belgilanadi. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda axborot va bilim aynanlashtiriladi. Vaholanki, bilim – axborot emas, balki tushunchalar, tasavvurlar, g'oyalar majmuasidir.

Aloqa kanalida, muloqot jarayonida bilim axborotning mazmuniga aylanadi. bilimning ma'nosi axborot signallarining ketma-ketligida, tartiblashuvda kodlashtiriladi. Muloqotning birinchi subyekti bilimni kodlashtirish orqali axborot (so'z, gap, matn, aloqa to'lqini, belgilar)ga

aylantiradi. Bu subyekt ijtimoiy guruh, tashkilot bo'lishi mumkin. Muloqotning ikkinchi subyektini yana bir marta kodlashtirish amalini bajarib, axborotni bilimga aylantiradi; axborot unga ehtiyoj, talab paydo bo'lgandagina bilimga aylanadi.

Shuningdek, axborotlashtirilgan jamiyat tarkibiy jihatdan bilim talablari natijalaridan iboratdir. Bularning biz bilim va axborotning o'zaro dialektik bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, bilim – bilim bo'lishi uchun, avval axborotga aylanishi kerak. Bu jarayonda axborot bilimni tasodif shaklida qayta yuzaga keltiradi; bilimlar axborotni qayta ishlaydigan va innovatsiyalarni tatbiq etish yo'nalishlari o'rtasida muloqotni amalga oshiradigan qurilmalarni ishga solish uchun qo'llaniladi; axborot va bilimning o'zaro aloqadorligi epistemologik xarakterga ega, ya'ni, obyekt – axborot bo'lsa, bilish – bilimdir; bilim va axborot jamiyat rivojlanishining barcha usullari uchun muhim, chunki ishlab chiqarish jarayoni har doim bilimlar va axborotni qayta ishlash darajasiga bog'liqdir.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Гайденко П.П. Знание и информация // Философия науки. – Москва.: Наука.1997. – №3. – С.189-190.
2. Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Тошкент.: Иқтисод-молия, 2007. – 180-б.
3. Луман Н. Невероятность коммуникации // Проблемы теоретической социологии. – СПб., 2000. – №3. – С.43-54.
4. Роузенталь Ф. Торжество знания. – Москва.: Прогресс, 1978. – С.235.
5. Абдуллаева М.Н., Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки. – Тошкент.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – С.37.
6. Полани М. Личностные знания. – Москва.: Прогресс. 1985. – С.9.
7. Шеннон К. Работы по теории информации и кибернетике. – Москва.: Прогресс.1963. –С.35.
8. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. –Москва.: Прогресс. Akademia, 1999. – С.103.
9. Mukhamadqodirovich, R. A. (2020). The role of mass media in the history of the period of independence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 356-359.
10. Расулов, А. М. (2020). Ўзбекистон республикаси тарихида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. *Взгляд в прошлое*, (SI-1№ 3).
11. Rasulov, A. M. (2022). Оммавий ахборот воситаларининг жамият аъзоларига ғоявий таъсири. *Scientific progress*, 3(4), 871-875.
12. Rasulov, A. M. (2021). Мустақиллик йилларида Ўзбекистондаги миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик. *Scientific progress*, 2(6), 931-936.
13. Rasulov, A. M. (2022). Мустақиллик йилларида оммавий ахборот воситалари эркинлиги. *Scientific progress*, 3(10), 4-8.
14. Расулов, А. (2022). Истиқлол даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 640-647.
15. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодиёт тармоқлари масаласи. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 2(15), 431-435.
16. Расулов, А. (2022). Роль средств массовой информации в системе источников истории периода независимости Узбекистана. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 633-640.
17. Расулов, А. (2023). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбаларининг умумий тавсифи. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/4), 79-90.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).